

**NODIR NORMATOVNING “ZAHARMUHRA” HIKOYASIDA INSON
RUHIYATINING TERAN TASVIRI**

Niyazova Zilola Eshtemirovna
Shahrisabz davlat pedagogika institute
o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezis Nodir Normatovning “Zaharmuhra” hikoyasi qahramonining ruhiy holatini, qahramon psixologiyasini ochish uchun u qadar ziddiyatga to'la voqealar va qahramon kechinmalari ham ko'zga tashlanmasligi, ammo Nodir Normatovning hikoyadagi teran tasvir, o'ziga xos badiiy asarni qabul qilish jarayonining ruhiy mexanizmlarini yaxshi tasavvur qilgani, uning badiiy mahorati tahlilga olingan.*

Kalit so'zlar: *psixologizm, ichki konflikt, aql va his, xronotop, estetik ideal, xarakter, shakl va mazmun.*

Annotation: *This thesis shows that in order to reveal the mental state and psychology of the hero of Nadir Normatov's story "Zaharmuhra", the conflicting events and experiences of the hero are not highlighted, but the deep image in the story and the process of accepting the unique artistic work of Nadir Normatov, that he had a good idea of mental mechanisms, his artistic skills were analyzed.*

Key words: *psychologism, internal conflict, mind and feeling, chronotope, aesthetic ideal, character, form and content.*

Adabiyotshunoslik psixologiya fani bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi. Badiiy asarda tasvirlangan inson ruhiyatini anglash, badiiy ijod psixologiyasi, badiiy asarni qabul qilish jarayonining ruhiy mexanizmlarini yaxshi tasavvur qilish uchun adabiyotshunosga psixologiya fanining yutuqlari juda katta yordam beradi. Ayni paytda, badiiy adabiyot psixologiya faniga ilmiy tadqiqotlar uchun boy material beradi.

Badiiy asarlarda ko'pincha qahramon psixologiyasini ochish uchun turli ziddiyatliklar, chigalliklarni tushunish, ajratishni taklif qilishadi. Nodir Normatov hikoyalarida u qadar ziddiyatga to'la voqealar va qahramon kechinmalari ham ko'zga tashlanmasligi mumkin, ammo teran tasvir kishini jalb qiladi.

Biz aql va hisni bir-biriga ko'pincha zid qo'yamiz, holbuki, bu narsa vujudimizda aql va hisning bir paytda mavjud bo'lishiga, ikkisinin birlikda inson ruhiyatini tashkil etishiga xalaqit bermaydi. Bas, nega endi inson ruhiy faoliyatining mahsuli bo'lgan adabiyot ularning ikkisini o'zida jam qilolmas ekan?!

“Zaharmuhra” hikoyalarida esa bugungi kunning ruhi, nafasi shundoqqina ufurib turibdi. Nodir Normatovning “Zaharmuhra” hikoyasi shular jumlasidan.

Hikoya qahramoni Jonmurod erkin zamonning erkatoy o'g'loni. Uning tayinli ish joyi yo'q. Na ona, na oilasi, umr yo'ldoshi, farzandlari oldidagi burchi, mas'uliyatini his etadi, na o'zining insonlik qadrini biladi; u erkin nafs bandasi, faqat yengil hayot — oson pul topish yo'ldan yuradi, o'zini bozorga uradi. Serdaromad ish qidirib Rossiyaga boradi, so'ng olib-sotarlik qiladi, maishiy buzuqlik ko'chasiga kiradi, onaizorining otasi xotirasi bilan bog'liq oddiy istaklari ijrosini paysalga soladi, shu tariqa u bora-bora beburd, ham jismoniy, ham ruhiy xasta kimsa holiga tushadi. Nihoyat, halokat yoqasida turgan o'g'lon -Jonmurodning ota bilan xayolan uchrashuvlari, muloqotlari, baxshi otaning o'z pushti kamariga aytgan beozor o'g'itlari, xususan, dilnavo qo'shiqlari o'g'lonni hushyor torttiradi. Ota vafotidan so'ng, u turmush tashvishlari bilan bo'lib o'lan bazmlarini unutib yuborgan edi. Baxshi ota kuylagan, mana bu satrlardan o'g'lonning karaxt vujudi titrab ketadi:

Anal bilan Mansurga qurgan dormidi,

Tirik ayrilgan bir ko'rgani zormidi,

Yur, chirog'im, deydi, meni qo'yamaydi.

Senda ota, menda o'g'il bormidi?

Yozuvchi shu yerga kelganida: “Jonmurodning ko'zlaridan yosh quyildi” deb yozadi. Oxir-oqibat ota aytgan qo'shiq satrlaridan hushyor tortgan o'g'lon — aslida baxshi shoir vorisi o'zligiga qaytib Ota aytgan qo'shiqni beixtiyor davom ettiradi:

Yig'laganda yosh yog'ilar yuzima,

Quloq sol, otajon, aytgan so'zima,

Ketding, senga bu dunyo o'zi tormidi,

Senda o'g'il, menda ota bormidi?

Pirovardida hikoyanavis shuni xabar qiladi: “Shunda... shunda uning yuragidagi ogriq qo'yib yubordi. Ammo ko'zlaridagi yosh hali-beri to'xtamaydiganga o'xshardi”. Munosib va ajoyib xotima — yechim. Xuddi oldingi hikoya — “Ko'cha eshikning naqshin gullari” kabi san'at asari — birida naqshin gullar, ikkinchisida esa baxshiyona qo'shiq satrlari asardagi mushkul muammo, jumboq — chigalliklarni bartaraf etishning oltin kaliti, aniqrog'i, o'g'lon vujudini zaharlagan illatlardan xalos etuvchi “zaharmuhra”- dori-darmon vazifasini o'taydi. Boshqacharoq qilib aytganda, go'zallik, nafasat, chin she'riyat, otashin navo kirlangan qalbni poklaydi. “Zaharmuhra” hikosida ham yozuvchi noyob badiiy topilmani o'ylab topganligiga guvoh bo'lamiz. Giyohlardan tayyorlanadigan zaharni qaytaruvchi dori sifatida ta'riflangan zaharmuhra detali orqali adib jamiyatning eng og'riqli muammolarini, insonlarning ma'naviy dunyosida sodir bo'layotgan illatlarni badiiy aks ettiradi.

Ma'lumki, ota va bola munosabatlari aks etgan badiiy asarlar jahon adabiyotida muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan va bu borada ko'plab asarlar yaratilgan. “Zaharmuhra” hikoyasida ham ayni shu mavzu etakchi.

Hikoya bosh qahramoni Jonmurod nafs bandasi, engil-elpi hayotga o'rgangan. Hamtovog'i Qo'ldosh bilan nopok ishlarni qilishdan ham toymaydi. Onasi, oilasi va

farzandlari oldidagi mas'uliyatini his qilmaydi. U o'g'ri, bekorchi hamtovoqlari davrasida ichishni, itxo'rlikni o'rganadi. Jonmurod bir necha yillar avval vafot etgan otasi bilan xayolan gaplashadi. Ota va bola o'rtasidagi bu xayoliy suhbatlardan inson uchun bolalikdan berilgan to'g'ri tarbiya eng muhim narsa ekanligini anglab etadi.

- Rostini aytsam, sizni shuncha yildan beri bir martagina esladim. U ham onamning qistovi bilan. Kechiring, ota.

- Hechqisi yo'q, bolam. Endi kech bo'lsayam, eslayapsan-ku. Bir sen emas, ko'pchilik shunday bo'lib qolgan hozir. Otalarni unutishgan.

--Nega shunday bo'ldi-a, ota?

- O'zimizdan o'tgandir, bolam, dedi otasi. Seni urmadik, so'kmadik, o'z holingga qo'yib berdik. Bizday qiynalmasin, so'kish-qarg'ish eshitmasin, kaltak emas deb avayladik.

Bugun kundalik hayotimizga nazar solsak, ko'pchilik yoshlarning engil-elpi hayotga intilayotganini va buning oqibatida bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar orqali esa ota-ona va farzandlar, aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar hatto qotillik bilan tugayotgani haqida xabardor bo'lyapmiz. Bularning ildizi, sababi esa oilada tarbiyaning berilmashligida, bolani o'z holiga tashlab qo'yilganida. "Zaharmuhra" hikoyasida Jonmurodning taqdiri orqali ma'rifatsizlik salbiy oqibatlarga olib kelishiga ishora qilinadi. Zaharmuhra ramziy ma'noda olsak, jaholatni ma'rifat bilan engish degan talqin qilish mumkin.

Umuman, adib mavzuni real hayotdan oladi. U adabiyot – insonni kashf etish tamoyili asosida insonni, uning ko'ngil kechinmalarini badiiy aks ettiradi. Uni insonning taqdiri, qadr-qiyamati, ma'naviy olami, orzulari, qayg'u va dardlari qiziqtiradi;

Nodir Normatov ijodini o'rganishda Abdulla Ulug'ovning tadqiqotlari alohida o'rin egallaydi. Ushbu to'plamda uning "Ma'naviy malham yoxud zaharmuhra" va "Zulayho daraxti bilasizmi yoxud o'zini izlayotgan odam" tadqiqotlari kiritilgan. Hajman kattaroq bo'lgan "Ma'naviy malham yoxud zaharmuhra"da N.Normatovning "Bisot" to'plamiga kiritilgan qissa va hikoyalari tahlilga tortilgan. Muallif N.Normatov ijodining umumiy manzarasi, inson va tabiat munosabatlarini badiiy aks ettirish mahorati, adib uslubi, estetik qarashlari kabi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotchining mana bu mulohazalarida adib ijodining asosiy jihatlari aks etadi: "Nodir Normatov o'zi ko'rgan, kuzatgan, ta'sirlangan voqealarni qalamga oladi va mayda tafsilotlarga berilib ketmasdan, hodisalar kechayotgan zamon va makonning eng muhim detallariga e'tibor qaratadi. Zamon va makon manzarasini chizishda eng e'tiborli jihatlarni topa bilish esa ijodkorning voqelik mohiyatini, qahramonlar holati, kechinmasini aniq his etganini bildiradi. Nodir Normatovning qissa, hikoyalari ayni xususiyat bo'rtib turadi. U asarlarida voqelikni xuddi ko'rib turgandek ifoda etadi. Shu bois ayni manzara o'quvchining

tasavvurlarida ham jonlanadi”. A.Ulug`ovning mazkur tadqiqotlari ko`proq tavsifiy-tahliliy xarakterga ega. Chuqur ilmiy-nazariy qarashlar etishmagandek taassurot uyg`otadi.Mazkur tahlillarning hammasida asosli va bahsli nuqtalarning mavjudligi shubhasiz.Chunki, badiiy asarda shakl va mazmunning bir butun mavjudligi, shuningdek, shakl va mazmun komponentlarini tasnif qilishda hali-hanuz bir xillikning yo`qligi mazkur tadqiqotning “xarakteri”ni to`laqonli asoslab bera oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Normatov N. Jarlikdan qushlar uchdi. Hikoyalar. – T.: Adabiyot va san`at, 1986.
2. Normatov N. Ro`zi Chorievning so`nggi vasiyati. – T.: “San`at”, 2008.
3. Umarali Normatov “Uch hikoya taassuroti” kh-davron.uz 23.12.2015
4. Ulug`ov A. Ma`naviy malham yoxud zaharmuhra / Nodir Normatov hayoti va ijosi zamondoshlari nigohida: maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar. – Toshkent.: “San`at” jurnali nashriyoti, 2017. – B.55.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o`quv yurtlari uchun darslik.- T.:2020/B-174.
6. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004
7. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
8. <http://ziyo.uz> < o`zbek-nasri> <http://uzsmart.ru.asarlar>.
9. <http://kitob.uz> O`zbekiston Milliy kutubxonasi